ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OTAMURATOVA SADOQAT TO‘LQINBEK QIZI

MUNISNING DINIY-TASAVVUFIY MAVZUDAGI SHE’RLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

10.00.02 – O‘zbek mumtoz adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2026

UO‘K:821.512.133.09-52

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Otamuratova Sadoqat To‘lqinbek qizi
Munisning diniy-tasavvufiy mavzudagi she’rlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari…….....5

Отамуратова Садокат Тулкинбек кизи
Идейно-художественные особенности религиозно-суфийских стихотворений Муниса…….....27

Otamuratova Sadoqat Tulqinbek qizi
Ideological and Artistic Characteristics of Munis’s Religious and Sufi Poetry…….....55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список обуликованных работ
List of published works.....59

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OTAMURATOVA SADOQAT TO‘LQINBEK QIZI

MUNISNING DINIY-TASAVVUFIY MAVZUDAGI SHE’RLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

10.00.02 – O‘zbek mumtoz adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4569 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**G‘ayipov Dilshod Qadambayevich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Amonova Zilola Qodirovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Omonboyeva Aziza Doniyor qizi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “27” noyabr soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№D-1093 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00), e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “6” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “6” noyabr dagi 15 - raqamli reestr bayonnomasi).

A.D. O‘rozboyev,
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

S.S. Atajonov,
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.I. Primov,
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari merosi, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va ma’naviy manbalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tasavvuf ta’limotining mumtoz adabiyotdagi badiiy talqini, ilohiy ishq, komil inson va ma’naviy kamolot bilan bog‘liq g‘oyalarning poetik ifodasini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Shermuhammad Munis she’riyatida Qur’oni karim, hadisi shariflar, tasavvuf allomalari merosi hamda Sharq mumtoz adabiyoti adabiy an’analar bilan uzviy aloqador bo‘lgan diniy-tasavvufiy g‘oyalarning badiiy ifodasi o‘ziga xos talqin etilgan. Shu bois shoirning diniy-tasavvufiy she’rlarini islomiy-irfoniy manbalar bilan bog‘liq holda o‘rganish, tasavvuf bosqichlarining badiiy ifodasi, irfoniy obraz va ramzlarning poetik vazifasi hamda tasavvufiy timsollarning mazmun-mohiyatini aniqlashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida, jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Ozarbayjon va Tojikiston olimlari tomonidan o‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvuf falsafasining badiiy talqini, irfoniy istiloh va timsollarning adabiy jarayondagi o‘rni hamda tasavvufiy g‘oyalarning poetik ifodasi masalalari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bunday izlanishlar Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari merosini yangicha ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Shermuhammad Munis she’riyatidagi tasavvufiy qarashlar, uning islomiy-irfoniy manbalari, Sharq mumtoz adabiyoti an’analari bilan uzviy bog‘liqligi hamda ularning o‘zbek tasavvufiy she’riyati rivojidagi o‘rni va badiiy-estetik xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Zero, shoirning diniy-tasavvufiy merosi, badiiy tafakkuri va ijodiy tajribasi keyingi davr mumtoz she’riyati uchun ham muhim ilhom manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois o‘zbek mumtoz adabiyoti va tasavvufiy tafakkuri rivojiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlarning ma’naviy merosini o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbek mumtoz adabiyotining diniy-tasavvufiy, ma’naviy-ma’rifiy asoslarini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Milliy va diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatning yangilanishi natijasida islom ta’limoti, tasavvuf falsafasi hamda ularning badiiy adabiyotdagi talqinini tadqiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu davrdan boshlab mumtoz adabiy meros tarkibidagi islomiy-irfoniy g‘oyalar, tasavvufiy qarashlar va ma’naviy-komillik masalalarini yorituvchi asarlar yangicha ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganila boshlandi. Natijada o‘zbek adabiyotining diniy-tasavvufiy qatlamini tadqiq etishga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar yuzaga kelib, mumtoz adabiy merosning ma’naviy-estetik mohiyatini chuqurroq anglash imkoniyati vujudga keldi. Haqiqatdan, “O‘zbek mumtoz adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish… bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-

amaliy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega”[1]ligi ushbu muammoni chuqur o‘rganish, xususan, Shermuhammad Munis she’riy merosining tasavvufiy talqinini yangi ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish, diniy-tasavvufiy mavzudagi she’rlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berish va ularning o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritish tadqiqotning asosiy mazmunini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2026-yil 2-iyundagi PF-103-son “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-iyuldagi 502-son “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Shermuhammad Munis ijodi jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Xususan, jahon adabiyotshunosligida shoirning badiiy merosi A.Vamberi, A.Samoylovich va M.Ko‘prilizoda[2] tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, uning tarixiy merosining yirik namunasi bo‘lgan “Firdavs ul-iqbol” asari bo‘yicha Y.Bregel[3] maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, A.Kun, V.Bartold, P.Ivanov[4] shoirning tarixiy asarlarini o‘rganishdagi tadqiqotlari, Y.Bertels, V.Jirmunskiy, N.Konrad[5] esa

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 13 сентябрдаги ПҚ-3271-сон “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисидаги” қарори // Халқ сўзи, 2017 йил 14 сентябрь. http://www.

[2] Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб. 1865. – С. 221; Самойлович А.Н. Турецкие этюды. – РНБ, Ф.671, ед. хр. 100. – 872 лл.; Куприлизода М.Ф. Турк адабиётида илк мутасаввифлар. – Анқара, 1984 (турк тилида) – Б. 274.

[3] Bregel Y. Shir Muhammad Mirab Muni’s and Muhammad Reza Mirab Agahi, Firdaws al-Iqbal: History of Khorezm translated from the Chaghatay and annotated. – Leiden, 1999. – P. 284.

[4] Кун А.Л. Заметки о Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости. – Тошкент: 1873. № 40. – С.17-25; Бартольд В.В. События перед Хивинском походом 1873 года по рассказу хивинского историка. // Кауфманский сборник. – Москва, 1910. – С.1-19; Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. – Ленинград: Салтыкова-Щедрина, 1940. – С. 289;

[5] Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. // Избранные труды в 5 т. – Москва: Наука, 1965. – С. 324; Жирмунский В.М. Проблемы сравнительно-исторического изучения литератур // Сравнительное

shoirning badiiy ijodini jahon adabiyoti bilan qiyosiy tahlil etib, shoir ijodiga tasavvufning ta’sirini ham qisman o‘rganganlar.

Davlatimizda mustaqillikkacha bo‘lgan davrda esa adabiyotshunos Y.Yusupov tomonidan Munisning she’riy asarlari o‘rganilib, shoirning “Tanlangan asarlari” va “Saylanma”si nashr qilingan[6]. Shuningdek, Q.Munirov, Ayyomiy, T.Ahmedov, N.Jumaxo‘ja, S.Hasanov[7]lar shoir ijodi bo‘yicha tarix, adabiyotshunoslik, pedagogika fanlari sohasida tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Xususan, T.Ahmedov shoirning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘zida jamlagan “Munis”[8] risolasini taqdim etgan. Adabiyotshunos N.Jumaxo‘ja shoirning “Savodi ta’lim” risolasini nashr ettirdi va “Munis g‘azaliyoti (Badiiy mahorat masalalari)” nomli kitobini shoirning g‘azalnavislik mahoratini yoritishga bag‘ishladi[9].

Mustaqillik yillarida esa adabiyotshunos N.Jumaxo‘ja “Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII-XIX asrlar o‘zbek she’riyati asosida)[10] nomli doktorlik dissertatsiyasida shoir ijodiga alohida to‘xtaldi. Sh.Vohidov, I.Bekjonov, N.Polvonov, N.Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov[11]lar tomonidan Munisning “Firdavs ul-iqbol” asari nashrga tayyorlangan. G.Xalliyeva, H.Nazirova[12]lar shoir asarlarini tarixiy-adabiy manba sifatida o‘rganganlar. U.Doschanova, M.Axmedova, G‘.Sapayev[13]lar esa XIX asrda yashab ijod etgan shoirlar qatorida, ijodkorning insonparvarlik g‘oyalarini, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini tahlil qilganlar.

Shoir she’riyatidan namunalar va shoir devonini nashr qildirish bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, adabiyotshunos E.Ochilov

---

литературоведение. Восток и Запад. – Ленинград, 1979. – С. 493; Конрад Н.И. Запад и Восток. Изд. 2. – Москва: Наука, 1972. – С. 517.

[6] Шермуҳаммад Мунис. Танланган асарлар // Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Юсупов Ю. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1957. – Б. 384; Шермуҳаммад Мунис. Сайланма. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 366.

[7] МунировҚ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XX аср бошлари) – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 2002. – Б. 192; Айёмий. Ўт чақнаган сатрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. – Б. 180; Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 224.

[8] Ахмедов Т. Мунис. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 48.

[9] Шермуҳаммад Мунис. Саводи таълим: (Адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма). // Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Жумахўжа Н. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 48; Жумаев Н. Мунис ғазалиёти. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 160.

[10] Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафкураси ва адабий мерос (XVII–XIX асрлар ўзбек шеърияти асосида). Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1999. – Б. 292.

[11] Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. / Нашрга тайёрловчилар: Воҳидов Ш., Бекжанов И., Полвонов Н. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 520; Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол / Нашрга тайёрловчилар: Жумахўжа Н., Рўзимбоев С., Ахмедов А. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – Б. 384; Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Иккинчи жилд / Нашрга тайёрловчилар: Бекжонов И., Полвонов Н. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 512.

[12] Халлиева Г. Самойлович А.Н. ва XIX аср Хоразм адабий муҳити. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти. – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2018. – Б. 276; Назирова Ҳ. Хонлар алқаган муаррих. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2021. – Б. 76.

[13] Досчанова У. XIX аср Хоразм мутафаккирлари дунёқарашида гуманистик ғоялар: Фалсафа фанлари бўйича номзоди автореферати – Тошкент, 2011. – Б. 24; Ахмедова М. Тафаккур тараққиёти тарихида XIX аср Хоразм мутафаккирлари ижтимоий-ахлоқий қарашлари: Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссерт...автореферати. – Самарқанд, 2019. – Б. 40, Сапаев Ғ. Мунис Хоразмийнинг ижтимоий-фалсафий ва маънавий-маърифий қарашлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – Б. 50.

“Mushkin qoshining hay’ati…”[14] nomi ostida Munis va Ogahiy ijodidan namunalar nashr qildirdi. “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 jildlik to‘plamning “O‘zbek mumtoz adabiyoti antologiyasi”[15] nomli 31-jildida shoir ijodidan namunalar nashr etildi. Shoirning “Munis ul-ushshoq”[16] devoni to‘liq holatda adabiyotshunos N.Jumaxo‘ja tomonidan “O‘zbek adabiyoti xazinasidan” 200 jildlik to‘plamning 37-jildida chop etildi.

M.Yunusov, N.Jumaxo‘ja, A.Jo‘raxonov, V.Rahmonov, N.Komilov, F.Karimova, S.Matkarimova[17] kabi bir qator adabiyotshunoslar Shermuhammad Munis ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Yuqorida ismi-sharifi keltirilgan tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida Shermuhammad Munis she’riyatidagi diniy-tasavvufiy masalalar monografik o‘rganilmagan. Shu bois ham biz shoir she’riyatidagi diniy-tasavvufiy mavzu tadqiqiga qo‘l urdik.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasining “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi istiqbolli rejasi, ilmiy tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi Shermuhammad Munisning diniy-tasavvufiy mavzudagi she’rlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Munisning diniy-tasavvufiy she’rlarining islomiy-irfoniy va badiiy-estetik asoslarini yoritish;

shoirning diniy-tasavvufiy she’rlari genezisi va adabiy-estetik manbalarini ochib berish;

ijodkor lirikasida tasavvuf bosqichlarining badiiy talqini masalalarini oydinlashtirish;

shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat masalalari yoritilishida ijodkor mahoratining ahamiyatini belgilash;

irfoniy obraz va ramzlarning shoir she’riyatidagi badiiy vazifasini dalillash;

---

[14] Мушкин қошининг ҳайъати: Мунис, Огаҳий / тўпловчи ва сўз боши муаллифи Э. Очилов. – Тошкент, 2013. – Б. 224.

[15] Turkiy adabiyot durdonalari. O‘zbek mumtoz adabiyoti antologiyasi / nashrga tayyorlovchilar H.Boltaboyev va D.Qozoqboyeva. 100 tomlik. 31-tom. Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 413.

[16] Munis. Munis ul-ushshoq. Devon / nashrga tayyorlovchi N.Jumaxo‘ja. O‘zbek adabiyoti xazinasidan. 200-tomlik. 37-tom. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2025. – B. 640.

[17] Юнусов М. Мунис шеърияти. Ўзбек тили ва адабиёти. 6-сон. – Тошкент, 1978. – Б. 48. Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча (Навоий томонидан бошлаб берилган анъананинг Нодира, Мунис, Огаҳий, Шавқий… кабилар томонидан ижодий давом эттирилганлиги ҳақида). Ўзбек тили ва адабиёти. 6-сон. – Тошкент, 1986. – Б. 15. Жумаев Н. Мунисниng “Саводи таълим” рисоласи. Ўзбек тили ва адабиёти. 6-сон. – Тошкент, 1978. – Б. 54; Шермухаммад Мунисниng 200 йиллигига. Ўзбек тили ва адабиёти. 2-сон. – Тошкент, 1979. – Б. 81. Жўрахонов А. Мунис шеъриятида адолат талқинлари. Ўзбек тили ва адабиёти. 4-сон. – Тошкент, 1998. – Б. 36. Раҳмонов В. Мунисниng бадиий мўъжизаси (Мунисниng бир байти мисолида). Ўзбек тили ва адабиёти. 5-сон. – Тошкент, 2004. – Б. 32. Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – Б. 192. Matkarimova S. Munisning Navoiy g‘azallariga muxammaslari. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari. Respublika I an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Urganch, 2021. – B. 11-14.

may bilan bog‘liq obrazlar va tasavvufiy ramzlarning shoir ijodidagi o‘rnini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti qilib Shermuhammad Munis adabiy merosini o‘zida jamlagan “Munis ul-ushshoq” devoni, “Saylanma”si, “Firdavs ul-iqbol” asari, “Mushkin qoshining hay’ati…” to‘plami, “O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi”ning 31-jildi olingan.

Tadqiqotning predmeti Shermuhammad Munis she’riyatidagi diniy-tasavvufiy qarashlarning badiiy talqini, tasavvufiy poetika, irfoniy timsollar tizimi hamda ularning Sharq mumtoz adabiyoti va o‘zbek tasavvufiy she’riyati an’analari bilan bog‘liqligini ilmiy-nazariy va qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotni yaratishda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tarixiy, biografik, tavsiflash va tasniflash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shermuhammad Munis she’riyatidagi tasavvufiy talqinning shakllanishida Qur’on, hadis, tasavvuf allomalari va Alisher Navoiy irfoniy merosining o‘rni, Sharq mumtoz adabiyoti an’analari hamda zamondosh shoirlar bilan ijodiy aloqalarning ahamiyati asoslanib, ularning shoir diniy-irfoniy dunyoqarashi va ilohiy ishq, ma’rifat, komillik, nafsni poklash, ruhiy kamolot, vahdat, foniylik va boqiylik kabi tasavvufiy ma’nolarning shakllanishiga ta’siri ochib berilgan;

Munis lirikasida shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlarining badiiy talqini yoritilib, ularning diniy-irfoniy mazmuni, o‘zaro uzviy aloqadorligi, insonning ruhiy-axloqiy kamoloti, nafsni poklash, ilohiy ishq, ma’naviy yetuklik va haqiqatni anglash kabi tasavvufiy qarashlar bilan uyg‘unligi dalillangan;

Munisning Kubroviya va Naqshbandiya tariqatlari bilan bog‘liqligi asoslanib, ushbu tariqatlarga xos ilohiy ishq, nafsni jilovlash, qalbni poklash, ruhiy kamolot, zikr, tavakkul va komil inson kabi tasavvufiy g‘oyalarning shoir she’riyatidagi badiiy talqini, yor, may, soqiy, ko‘ngil, zulf, sham, parvona, nur va hijron kabi ramz hamda timsollarning tasavvufiy-irfoniy mazmuni, adabiy matndagi g‘oyaviy-badiiy vazifasi dalillangan;

Munis she’riyatidagi yor, soqiy, may, jom, ko‘ngil, zulf, sham, parvona, nur, hijron va visol kabi irfoniy obraz hamda tasavvufiy ramzlarning ilohiy ishq, ma’rifat, ruhiy poklanish, nafsni yengish va Haqqa yetishish kabi g‘oyalarni ifodalashdagi badiiy-estetik vazifasi, mumtoz adabiyotda shakllangan gul, bulbul, oshiq singari an’anaviy timsollarning Munis ijodida zohiriy va botiniy mazmun uyg‘unligini ta’minlashdagi adabiy ahamiyati isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Shermuhammad Munis she’riyatining islomiy-irfoniy manbalari tadqiq etilib, Qur’oni karim, hadis, tasavvuf allomalari, Sharq mumtoz adabiyoti merosi hamda zamondosh shoirlar ijodining shoir dunyoqarashi va ijodiy tafakkuri shakllanishidagi o‘rni ilmiy jihatdan dalillangan.

Shoir lirikasida shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlarining badiiy talqin xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni ifodalashda qo‘llangan poetik vositalarning o‘ziga xosligi aniqlangan.

Shermuhammad Munisning kubroviya va naqshbandiya tariqatlari bilan g‘oyaviy-ruhiy aloqadorligi dalillar asosida ko‘rsatilib, ushbu tariqatlarga xos tasavvufiy qarashlarning she’riy ifodasi ochib berilgan.

Munis she’riyatida uchraydigan irfoniy obrazlar, tasavvufiy ramzlar hamda may timsolining badiiy-estetik funksiyasi va ularning g‘oyaviy-badiiy mazmuni ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, qo‘llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarnnig ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Shermuhammad Munisning diniy-tasavvufiy she’rlari, ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, o‘ziga xos jihatlari, ijodi mavzu jihatdan ko‘lamdor ekanligi, mavzuni yoritishda turli usullardan foydalanish imkoniyati kengligi, mumtoz adabiyotga xos badiiy imkoniyatlardan mahorat bilan foydalanganligi aniqlanganligida namoyon bo‘lib, keltirilgan nazariy fikr-mulohazalardan o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi tarixini o‘rganishda, “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiyotshunoslikka kirish”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Tasavvuf adabiyoti”, “Badiiy tahlil asoslari” kabi fanlarni o‘qitishda, shu fanlar bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda tayanch manba bo‘lib xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu dissertatsiya ishi materiallaridan ta’limning turli bosqichlarida, xususan, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, umumiy o‘rta ta’lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘qitiladigan adabiyot darslarida, shuningdek, mavzuga oid darslik, qo‘llanma va risolalar yaratishda material bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Munisning diniy-tasavvufiy mavzudagi she’rlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan:

Shermuhammad Munis she’riyatidagi tasavvufiy talqinning shakllanishida Qur’on, hadis, tasavvuf allomalari va Alisher Navoiy irfoniy merosining o‘rni, Sharq mumtoz adabiyoti an’analari hamda zamondosh shoirlar bilan ijodiy aloqalarning ahamiyati asoslanib, ularning shoir diniy-irfoniy dunyoqarashi va ilohiy ishq, ma’rifat, komillik, nafsni poklash, ruhiy kamolot, vahdat, foniylik va boqiylik kabi tasavvufiy ma’nolarning shakllanishiga ta’siri ochib berilgani, Munis lirikasida shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlarining badiiy talqini yoritilib, ularning diniy-irfoniy mazmuni, o‘zaro uzviy aloqadorligi, insonning ruhiy-axloqiy kamoloti, nafsni poklash, ilohiy ishq, ma’naviy yetuklik va haqiqatni anglash kabi tasavvufiy qarashlar bilan uyg‘unligi dalillanganiga doir natijalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan, Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2021 – 2023-yillarda amalga oshirilgan ПФ-201912258-

raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanildi (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-iyundagi 01/01-2805-son ma’lumotnomasi). Natijada platformaning ilmiy-nazariy va ma’rifiy ahamiyati oshirilgan.

Munisning Kubroviya va Naqshbandiya tariqatlari bilan bog‘liqligi asoslanib, ushbu tariqatlarga xos ilohiy ishq, nafsni jilovlash, qalbni poklash, ruhiy kamolot, zikr, tavakkul va komil inson kabi tasavvufiy g‘oyalarning shoir she’riyatidagi badiiy talqini, yor, may, soqiy, ko‘ngil, zulf, sham, parvona, nur va hijron kabi ramz hamda timsollarning tasavvufiy-irfoniy mazmuni, adabiy matndagi g‘oyaviy-badiiy vazifasi dalillangani bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Xorazm viloyati teleradiokanali davlat muassasasida 2022–2026-yillar davomida efirga uzatilgan “Assalom, Xorazm”, “Adabiy muhit”, “Xayrli kun” kabi eshittirish va teledasturlarni tayyorlashda foydalanildi (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Xorazm viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2026-yil 18-iyundagi 735-son ma’lumotnomasi). Natijada teleauditoriyaning Shermuhammad Munisning diniy-tasavvufiy dunyoqarashi, badiiy-estetik tafakkuri va ma’rifatparvarlik g‘oyalari haqidagi bilimlari kengaytirilib, shoir ijodining ilmiy-ma’rifiy targ‘iboti hamda o‘zbek mumtoz adabiy merosini ommalashtirish samaradorligi oshirilgan.

Munis she’riyatidagi yor, soqiy, may, jom, ko‘ngil, zulf, sham, parvona, nur, hijron va visol kabi irfoniy obraz hamda tasavvufiy ramzlarning ilohiy ishq, ma’rifat, ruhiy poklanish, nafsni yengish va Haqqa yetishish kabi g‘oyalarni ifodalashdagi badiiy-estetik vazifasi, mumtoz adabiyotda shakllangan gul, bulbul, oshiq singari an’anaviy timsollarning Munis ijodida zohiriy va botiniy mazmun uyg‘unligini ta’minlashdagi adabiy ahamiyati isbotlangani bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan, davlat ilmiy dasturlari doirasida 2019-2021-yillarda amalga oshirilgan I-OT-2019-42. O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe’l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish nomli grant loyihasida foydalanildi (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 31-iyuldagi 01/4-3517-son ma’lumotnomasi). Natijada lug‘atning ilmiy-nazariy ahamiyati oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya doirasida erishilgan ilmiy natijalar 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza ko‘rinishida taqdim etilib, ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan 9 tasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 6 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar tarkibidagi oltita fasl, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Munis diniy-tasavvufiy she’rlarining islomiy-irfoniy va badiiy estetik asoslari”** deb nomlangan. Birinchi bob ikki fasldan iborat bo‘lib, bobning birinchi fasli ***“Shoir diniy-tasavvufiy she’rlari genezisi”*** deb nomlanadi.

Tasavvuf – xolislik ta’limi. Tasavvuf – soflik. Tasavvuf – riyosizlik (taqvoiylik). U “qullikka belni mahkam” etishga chorlasa-da, Haq qullarining naqadar aqliy, ma’naviy, axloqiy imtiyozlarga ega ekanligini amalda isbotlaydi. Tasavvuf – muomala madaniyati. U til va dil yomonligiga, o‘zgadan keladigan ranj-u ozorlardan ham xoli bo‘lishni, ham halimlik bilan, g‘azab va adovat pichog‘iga sira qo‘l cho‘zmasdan bartaraf qilishga o‘rgatadi[18]. Albatta, tasavvuf bir ilm va insonning o‘z ruhi ustida ishlash jarayonidir.

O‘zbek mumtoz adabiyotida mutasavvif shoirlar qatorida Shermuhammad Avazbiy o‘g‘li Munis ham o‘z o‘rniga ega ijodkordir. Shoir asarlarida, jumladan, “Firdavs ul-iqbol” asarining hamd, na’t qismlarida misollar ko‘plab uchraydi. Shoirning “Munis ul-ushshoq” devoni har tomonlama mukammal devon hisoblanadi. Ushbu devon O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo‘lyozmalar fondida 940-raqam bilan saqlanadi. Bu devon shoir vafotidan keyin ko‘chirilganligi bois, shoirning barcha ijodini qamrab oladi.

Munis diniy-tasavvufiy she’rlarining genezisini o‘rganishda ularning manbalarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Qur’oni karim oyatlari bilan bog‘liq manbalar. Shoir ijodida Qur’on oyatlari mazmunining badiiy talqini muhim o‘rin tutadi. Munis ilohiy kalomdagi axloqiy, ma’rifiy va irfoniy g‘oyalarni she’riy shaklda ifodalab, ularga yangi badiiy mazmun yuklaydi.

2. Hadisi shariflar bilan bog‘liq manbalar. Munis she’riyatida hadislar orqali targ‘ib etilgan sabr, qanoat, tavoze’, saxovat, poklik va komil inson

[18] Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 5.

g‘oyalari o‘z aksini topgan. Shoir hadislar mazmunini bevosita yoki bilvosita badiiy talqin qilish orqali o‘z asarlarining g‘oyaviy salmog‘ini oshirgan.

3. Tasavvuf allomalari va mutasavvif shoirlar merosi bilan bog‘liq manbalar. Munis ijodida Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy va shu kabi bir qator mutasavviflar ta’limotining ta’siri seziladi. Xususan, ilohiy ishq, tavhid, ma’rifat, fano va baqo kabi tasavvufiy tushunchalar shoir she’rlarining mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy unsurlardan hisoblanadi.

Demak, Munis diniy-tasavvufiy she’rlarining shakllanishida Qur’on oyatlari, hadisi shariflar hamda tasavvuf allomalari merosi muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

I. Birinchi guruhni Qur’oni karim oyatlari tashkil etadi. Qur’oni karim islom dini va tasavvuf ta’limotining bosh manbai sifatida Munis dunyoqarashi hamda ijodining shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Shu bois shoir she’riyatidagi diniy-tasavvufiy g‘oyalarning manbalarini o‘rganishda Qur’on oyatlarining tutgan o‘rnini tahlil qilish zarur.

Tasavvufning asosi Qur’on va hadislardir. Quyida bunga asos bo‘la oladigan bir qancha oyatlar keltiramiz: “U taqvodor zotlar qachon biron-bir nojo‘ya ish qilib qo‘ysalar yoki (qandaydir gunoh ish qilish bilan) o‘zlariga zulm qilsalar, darhol Allohni eslab, gunohlarini mag‘firat qilishini so‘raydilar – har qanday gunohni yolg‘iz Allohgina mag‘firat qilur – bilgan hollarida qilgan gunohlarida davom etmaydigan kishilardir”(3:135).

Shoir ham quyidagi ruboiyda oyatga asoslanib shunday fikrlarni bildiradi. Agar inson gunoh qilsa va bunga astoydil tavba qilsa, Alloh rahmatiga erishishi mumkin. Shoir o‘zining ham ko‘p gunoh qilganligini ta’kidlab o‘tadi. So‘nggi misrada shoir chin dildan tavba qiladi. Tavba insonni ma’naviy poklab, nafsdan xalos etib, Alloh yo‘liga qaytaruvchi vositadir.

Gar qilsa kishi bo‘lub gunohe tavba,
Bo‘lg‘usi gunoho uzr xohi tavba.
Ko‘p jurm-u gunoh sodir o‘lmish mendin,
Bu jurm-u gunohdin, ilohi, tavba[19].

II. Hadisi shariflar islom ta’limotining Qur’oni karimdan keyingi eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular musulmonlarning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi muhim ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, mutasavvif shoirlar ijodida hadisi shariflardan keng foydalanilgan bo‘lib, ular orqali ilm olish, ezgulik, sabr, tavba, qanoat, tavoze’, mehr-oqibat va komil inson fazilatlari targ‘ib etilgan. Shu bois hadisi shariflar bilan bog‘liq manbalar adabiy asarlarning g‘oyaviy asoslarini o‘rganish hamda ijodkorlarning diniy-ma’rifiy qarashlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hadisi shariflarning mazmun-mohiyati Qur’oni karim oyatlarida bayon etilgan ilohiy ko‘rsatmalar bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, “Yunus” surasi 26-oyatidan “Chiroyli amal qilgan zotlar uchun go‘zal oqibat va ziyoda ne’matlar bordir. Ularning yuzlarini na qoralik va na xorlik qoplar. Ana o‘shalar Jannat

[19] Munis. Munis ul-ushshoq. Devon. – Toshkent: O‘zbekiston, 2025. – B. 592. (Bundan keyingi Munis ijodidan olingan misralar, shu kitobdan olinadi va qavs ichida beti ko‘rsatiladi). Xuddi shu mazmundagi Alisher Navoiyning ham ruboiysi bo‘lib, shoir undan ijodiy ilhomlangan.

egalari bo‘lib, u joyda abadiy qolurlar”, hadisi sharifdan esa bu g‘oyalar quyidagicha bayon etiladi: “Odamlarning eng yaxshisi birovlarga manfaati tegadigan kishidir”, “Bilimni kitobat – yozish bilan bog‘lab qo‘ying”. Ushbu oyat va hadislarning badiiy ifodasi ham Munis ijodida sezilarlidir:

Har ko‘ngilkim, johiliyat zahridin o‘lmish edi.
Oni tirguzdi hadising no‘shi, sen ochqanda lab (111-bet).

Baytda shoir dunyo ahlini johiliyatdan o‘lganlar deya tasvirlaydi. Tasavvufda esa bu qalbning o‘limi Allohdan uzoqlashishdir. Keyingi misrada esa Payg‘ambar alayhissalomning hadislari “shifobaxsh ichimlik” sifatida tasvirlanadi. Shoir Payg‘ambar alayhissalomning muborak kalomlari insonni ma’rifatga eltuvchi, zulmatdan olib chiquvchi vosita ekanligini uqtiradi.

III. Tasavvuf ta’limoti va uning badiiy-adabiy talqinini o‘rganishda tasavvuf allomalari hamda mutasavvif shoirlar merosi bilan bog‘liq manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday manbalarda tasavvufning nazariy asoslari, tariqatlar faoliyati, komil inson haqidagi qarashlar hamda ilohiy ishq va ma’rifat masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, mazkur asarlar mutasavvif shoirlar ijodining g‘oyaviy-badiiy manbalarini aniqlash, ularning tasavvufiy qarashlarini tahlil qilish va adabiy merosidagi diniy-irfoniy motivlarni tadqiq etishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

O‘zbek tasavvuf adabiyotining zabardast vakili Najmiddin Kubro o‘zining “Usuli ashara” nomli kitobida “… bu yo‘lning tamal qoidalarini esa o‘n asosda jamlash mumkindir”[20] deya tasavvufning quyidagi yo‘llariga izoh beradi. Bular: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizo. Mazkur maqomlarning birinchisi tavba bo‘lib, mutasavvif uning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: “Tavba istakka bog‘liq bo‘lmog‘i kerak. Majburiy tavba oxir nafasida iymon keltirgan kishining iqroriga mengzaydi…” (139-bet).

Najmiddin Kubro tavbani inson qalbida yuzaga keladigan chin pushaymonlik va Haq tomon samimiy yuzlanish sifatida talqin etadi. Ushbu tasavvufiy qarashning badiiy ifodasini Shermuhammad Munis quyidagicha yozadi:

Munisdur asru giryon bo‘lg‘aymu shafqatingdin,
Kim, goh-goh qilsa ul notavon tabassum (394-bet).

Shoir o‘zini “asru giryon” – ya’ni doimiy yig‘lovchi, tavbador solik sifatida ko‘rsatadi. “Notavon tabassum” – ojiz banda uchun Haqning bir jilvasi, marhamati. Munis Haqdan o‘sha marhamatli tabassumni, ya’ni Uning rahmatini so‘raydi. Shoir ham tavba istakka bog‘liqligini, u qalbda bo‘lishi kerakligiga da’vat qiladi.

Bobning ikkinchi fasli ***“Mavzuga oid she’rlarning adabiy-estetik asoslari”*** deb ataladi. Munisning diniy-tasavvufiy qarashlari shakllanishida Alisher Navoiy ijodining ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir Navoiy an’analarini davom ettirib, ilohiy ishq va komil inson g‘oyalarini yangi tarixiy-adabiy sharoitda qayta talqin etgan. Shu bilan birga, uning she’riyatida Jomiy, Hofiz, Sa’diy, Attor va Rumiy kabi mutafakkirlarning g‘oyaviy-estetik qarashlari ham seziladi. Munis

[20] Нажмиддин Кубро. Усули ашара // Ислом тасаввуфи манбалари (тасаввуф назарияси ва тарихи). Илмий мажмуа. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 138.

ulardan nafaqat mavzu va obrazlar tizimini, balki tasavvufiy ma’nolarni ramziy ifodalash usullarini ham ijodiy o‘zlashtirgan. Bu so‘zimizga isbot tariqasida shoirning “Manga” radifli g‘azalini keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, Munisning zamondosh ijodkorlar bilan adabiy aloqalari va Xorazm adabiy muhiti ham uning tasavvufiy dunyoqarashining boyishida muhim omil bo‘lgan. Adabiy muloqotlar natijasida shoirning badiiy tafakkuri takomillashib, diniy-ma’rifiy mavzularning yangi qirralari yuzaga chiqqan. Natijada Munis ijodi Sharq mumtoz adabiyotining ko‘p asrlik an’analarini o‘zida mujassam etgan holda, tasavvufiy tafakkurning XIX asrdagi taraqqiyot bosqichini aks ettiruvchi muhim adabiy hodisaga aylangan.

Fuzuliy qalamiga mansub quyidagi baytda tasavvufning faqr, fano va qanoat g‘oyalari ifodalangan.

Fuzuliy, olami faqr-u fanoda mun’imi vaqtam,
Diyori maskanat, naqdi qanoat mulk-u molimdur[21].

Shoir o‘zini faqr-u fano kishisi sifatida tasvir etadi. Maskanat va qanoat orifning haqiqiy boyligidir. Dunyoviy nafs va boyliklardan voz kechib, ruhiy poklanishdir. Tasavvufda mulk emas, qalb xotirjamligi va qanoat eng katta boylikdir. Munis ijodida ham Fuzuliy g‘oyalariga izdoshlik seziladi. U ham o‘zini faqr ahlidan deb biladi. Ko‘plab g‘azallarida o‘zini “shoh saroyida gadoy” deb ataydi.

Dema gado qo‘ysam eshiklarga yuz,
Qissayi dardum o‘quram bob-bob (120-bet).

Yoki:

Loyiqmu bo‘lg‘oy shohdin surmak gado dargohdin,
Munisni xoki rohdin qovmoq na erdi yozg‘urub (144-bet).

Birinchi baytda shoir o‘zini faqr hisoblab, ilohiy dargohga hurmat bilan yuzlanishni, qalbidagi dardlarni bayon etish istagini ifoda etadi. Ikkinchi baytda ham o‘zini faqr-u yo‘l tuprog‘i sanab, Allohning cheksiz mehr-muruvati oldida bu kabi ojiz bandani dargohdan quvish munosib emasligini ta’sirchan tarzda tasvirlaydi.

Alisher Navoiyda ham bu kabi baytlar yetarlicha bo‘lib, ularda shoir orifni Haq sirlarini oshkor etmaslikka chaqiradi. Munisning Navoiy g‘oyalariga izdoshligi yaqqol seziladi.

Haq sirrini har kimga bayon etma, Navoiy,
Ta’n aylamagay, bilmas ulus anglasa nogah[22].

Inson har qancha haqiqat mayidan mast bo‘lib, to‘lib-toshmasin, u baribir muvozanatni saqlay olishi, sirlarni oshkor qilmasligi shart. Tasavvuf g‘oyalari omma uchun emas, xoslar uchundir. Shoir misralarida bu g‘oyani yanada takomilga yetkazadi.

Munis she’riyatida ro‘za mavzusining yoritilishida Alisher Navoiy an’analarining ta’siri yaqqol seziladi. Har ikki shoir ro‘zani inson ma’naviyatini yuksaltiruvchi va ruhiy poklanishga xizmat qiluvchi ibodat sifatida talqin etadi.

[21] Fuzuliy. O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi. 58-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 76.
[22] Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 9-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 531.

Alisher Navoiy yozadi:

Sarvinozim, yo‘q ajab, gar ro‘zadin topmish malol
Kim, suv ichmasdan topar pajmurdalig‘ nozik nihol.

Bu o‘rinda ro‘zaning kishilar sog‘ligiga nisbatan riyozat keltirishini shoir xolis tasvir orqali ifodalayotgani diqqatlidir. Bu mavzu, she’riyatda o‘ziga xos mavzulardan bo‘lib, hozirgi bayt ham o‘ziga xos tasviri bilan ahamiyatlidir. Bu o‘rinda Munisning “Ro‘za”ga bag‘ishlab yozgan g‘azali o‘rinlidir.

Ro‘za bisyor meni tang etmish,
Badanim sust, ayog‘im lang etmish (314-bet).

Baytda ro‘za orqali jismoniy cheklanishlar, sabr va bardosh sinovlari ko‘rsatilmoqda. Tasavvufda ro‘za faqat ochlik emas, balki nafsni tiyish, ichki poklanish vositasi sifatida tushuniladi. Ruhiy komillikka intilish yo‘lida bunday og‘irliklar tabiiy deb qaraladi.

Uvaysiy ijodidan olingan quyidagi misralar ham tasavvufona ruhda yozilgan. Shoira qalbni Allohdan uzoqlashtiruvchi shirk va dunyoviy istaklardan uzish kerakligi haqida yozadi. Baytda Alloh ishqidan tug‘ilgan dard solikni komillikka va vahdatga eltishi tasviri berilgan.

Forig‘ et dildin sahobi shirkni, Haqni g‘amin,
Yor dardidin sumurmaklik mayi vahdat manga[23].

Bu kabi sayri suluk jarayonida dunyo ne’matlari, nafs istaklari, dunyoviy iztiroblar, lazzatlar, beqarorliklardan voz kechish g‘oyasi Munis ijodida ham o‘ziga xos ifoda topgan. Shoir ijodida bu narsalar Haq yo‘lidan chalg‘ituvchi, ozdiruvchi narsalar sifatida gavdalanadi.

Davlati diydoring aylar orzu ko‘nglum, valek
Naylayinkim, komig‘a yetkurmas oni dahri dun (428-bet).

Solikning ilohiy visolga bo‘lgan cheksiz intilishi va dunyoning bu yo‘lda to‘siq ekanligi ifodalangan. Birinchi misrada solik ilohiy jamolga yetishishni orzu qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi misrada foniy dunyo bu yo‘lda to‘siq bo‘layotganidan nola chekadi. Bu g‘oya tasavvufda zuhd maqomi deya nomlanadi.

Munis ishq ahlini ulug‘lab uning joyi tekislikda emas, balki tog‘lar kabi balandlikda deya kuylaydi.

Kerakdurkim taraqqiy topsa ishq ahli tanazzuldin,
Chiqib homundin, ey sel, jununim ozimi ko‘hsor et (186-bet).

Shoir she’riyatida insoniy fazilatlar, ishq va vafo ulug‘lanar ekan, bu jihatni biz Huvaydo she’riyatida ham uchratishimiz mumkin. Bu holat ikki shoir ijodidagi ma’naviy-axloqiy qarashlarning mushtarakligini ko‘rsatadi. Masalan:

Ey Huvaydo, berma dil har bevafoni yor deb,
Ikki olam bevafo yori qaro qosh o‘zgadur[24].

“Shoir haqiqatdan ham keng ko‘lamli va samimiy do‘stlikning, ahllikning ajoyib kuychisi va targ‘ibotchisi bo‘ldi”[25]. Baytda do‘stlikdan tashqari, “qora qosh yor” vaqtinchalik va foniy dunyo ne’matlarining ramzi bo‘lib, ularga bog‘lanish

[23] Uvaysiy. O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi. 10-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 33.
[24] Хожамназар Ҳувайдо. Девон. Роҳати дил. – Тошкент, 1993. – Б. 87.
[25] Ankabayeva M.M. Xojamnazar Huvaydo merosining tasavvufiy talqini: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Jizzax, 2025. – B. 127.

asl haqiqatdan, Allohda uzoqlashtirishiga urg‘u berilmoqda. Shoir haqiqiy muhabbat va sadoqat Allohga bo‘lgan muhabbat ekanini uqtiradi.

Ikkinchi bob **“Ijodkor lirikasida tasavvuf bosqichlarining badiiy talqini”** deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli ***“Shariat va tariqat masalalari yoritilishida ijodkor mahoratining o‘rni”*** o‘rganiladi. Shariat – qonun bo‘lsa, tariqat – yo‘l. Qonun tanani va qalbni tarbiyalasa, yo‘l qalbni poklab, nurlantirib beradi. Shariat islom dinining qonunlar majmui, u fiqh deb nomlanadi. Sharqda tasavvufni adabiyotsiz, badiiy ijodni tasavvufsiz tasavvur etib bo‘lmasligi o‘rta asrlardanoq o‘z ifodasini topgan. Tasavvuf nazariy bilimlardangina iborat emas, balki uning amaliy talablari ham bo‘lib, ular bevosita ustoz rahbarligida amalga oshirilgan.

“Tasavvuf deydiki: tariqatim – shariatim, shariatim esa tariqatimdir”[26].

Mavlono Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”ning muqaddimasida yozadi: “Shariat shamga o‘xshar, yo‘l ko‘rsatar. Ammo shamni qo‘lga olmoq bilan yo‘l ochilmas. Yo‘lga tushdingmi, bu yurush tariqat erur, maqsadga erishdingmi bu – Haqiqatdur… Shariat bilimdir. Tariqat – tutmoq, Haqiqat – Tangriga yetishmak”[27].

Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, bu darajalarning barchasi shariatning mahsulidir. Shariatsiz tariqatga, tariqatsiz boshqa darajalarga kirib bo‘lmaydi.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, ma’rifat va haqiqat maqomlariga yetishishning ilk sharti shariat amallariga to‘liq amal qilishdir. Solik ibodat, taqvo, sabr, halollik va poklikni o‘z hayotining asosiy mezoniga aylantirmog‘i kerak. Chunki shariat tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlariga eltuvchi mustahkam poydevordir. “Chiqma qarog‘a sog‘-u so‘l” misrasi esa yo‘lda turli og‘ishlar, nafs istaklari va dunyoviy vasvasalarga berilmaslik haqida ogohlantiradi. Bu yerda o‘ng va so‘l tomon ramziy ma’noda insonni maqsaddan chalg‘ituvchi turli g‘oyalar, manfaatlar va havaslarni anglatadi. Solik Haq yo‘liga kirgach, qalbini turli shubha va gumonlardan asrab, faqat ilohiy maqsad sari intilishi zarur.

Zihi, risolating elga dalili rohi faloh,
Erur saodat uyiga shariating masboh (228-bet).

Ushbu baytda shoir islom ta’limotining ikki muhim tushunchasi – risolat va shariat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Baytning birinchi misrasida Payg‘ambar alayhissalomning risolati insoniyatni najot va kamolot sari boshlovchi ilohiy hidoyat manbai sifatida talqin etiladi. “Risolating elga dalili rohi faloh” jumlasi orqali shoir Muhammad alayhissalomning payg‘ambarlik vazifasi insonlarni falohga, ya’ni dunyo va oxirat saodatiga eltuvchi yo‘lni ko‘rsatishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Bu yerda “dalil” so‘zi yo‘l ko‘rsatuvchi, hidoyat etuvchi ma’nolarini ifodalab, risolatning jamiyat hayotidagi o‘rnini yoritadi. Ikkinchi misrada esa “Erur saodat uyiga shariating masboh” deyilishi orqali shariat insonni saodat manziliga eltuvchi yo‘lni yoritib turuvchi chiroq timsolida tasvirlangan. “Masboh” (misboh) arabcha so‘z bo‘lib, “chiroq”, “nur taratuvchi vosita” ma’nolarini anglatadi. Demak, agar risolat insoniyatga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatsa, shariat ana shu yo‘ldan adashmay yurish imkonini beradigan ma’naviy nur vazifasini bajaradi. Tasavvufiy talqinda esa shariat

[26] Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. 1-китоб. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2000. – Б. 16.
[27] Mavlono Rumiy. Masnaviy. V jild. – Istanbul, 1990. – B. 15.

solikning ruhiy kamolot sari qiladigan safarining birinchi va eng muhim bosqichi hisoblanadi.

Tariqat – insonning ichki dunyosi bilan bog‘liq yo‘l bo‘lib, u insonning ichki pokligi va vazmin tabiatidir. Tariqat arab tilidan “yo‘l” degan ma’noni bildirib, bu yo‘ldan faqat Allohga yaqinlashmoqchi bo‘lganlar va Uning roziligini topishga intilganlar yuradi. Bu yo‘lga kirishni xohlagan kishilar “solik”, safar davomida ularga “sayri suluk” deyiladi. Ammo tasavvufda tariqatlar shunchalik ko‘pki, sanoqlar yetmaydi. Tariqatlar tarbiya tizimlariga, zikr ko‘rinishlariga, muhabbat darajalariga ko‘ra farqlanadi. Har bir tariqatning ustozi bo‘lib, ular “shayx” deb yuritiladi. Ulardan qodiriya, kubraviya, mavlaviya, yassaviya, naqshbandiya tariqatlari mashhurdir.

Shariat qonun bo‘lsa, tariqat bu qonunlarning amalidir. Munis ham bu fikrni quyidagi satrlarda ifoda etadi:

Dard chekmak, ashk to‘kmak ishq eliga xosdur,
Har ko‘ngulga dard-u har ko‘zga emas nam oshno (98-bet).

Dard chekib qalbning ashk ila yuvilishini tariqat bosqichining boshlanmasi desak bo‘ladi. Shoir qarashlarida tariqat bosqichi har bir inson uchun bor, ammo bu bosqichda sabr bilan, pirga sadoqat bilan yurilmasa, maqsadga erisha olmaydi.

Tasavvuf tarixida maqomlar soni barcha tariqatlarda bir xil emas. Ayrim mutasavviflar ularni yetti maqom, boshqalari o‘n maqom, yana ba’zi tariqatlarda esa qirq maqom tarzida tasniflaganlar. Masalan, ayrim manbalarda tavba, vara’, zuhd, faqr, sabr, tavakkul va rizo yetti asosiy maqom sifatida ko‘rsatiladi. Boshqa tasniflarda esa muhabbat, ma’rifat, yaqin, fano kabi maqomlar ham qo‘shilib, ularning soni o‘nga yoki undan ortiq darajalarga yetadi. Xususan, turkiy tasavvuf an’anasida, jumladan, Ahmad Yassaviy ta’limotida qirq maqom haqidagi qarashlar keng tarqalgan bo‘lib, ular shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi.

Quyidagi baytda esa tariqat yo‘liga kirish tasvirlangan bo‘lib, baytda Alloh yo‘lida yurish, dunyo havasiga aldanmaslik g‘oyalari o‘z aksini topgan. Tariqat bosqichining muhim jihatlari – talab, izlanish, g‘aflatdan qutulish, dunyo havaslaridan voz kechish hamda Alloh rizosini eng oliy maqsad sifatida anglash g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Shoir solikni ruhiy uyg‘oqlikka da’vat etib, ilohiy ma’rifatga eltuvchi yo‘lning mashaqqatli bo‘lsa-da, eng qimmatli va sharafli yo‘l ekanligini ta’kidlaydi.

Talab yo‘lig‘a ne kirmay yurarsen, turg‘il ey g‘ofil.
Ki, ul usru yiroq zoding kimi noyob erur matlab (135-bet).

Mazkur maqomlar tugagach ma’rifat bosqichi boshlanadi. Ma’rifat ilmi haqiqatni egallash, inson va Alloh orasidagi yaqinlikni anglashdir.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli ***“Ma’rifat va haqiqat maqomlari ifodasining o‘ziga xosligi”*** deb nomlanadi. Tasavvuf ta’limotida ma’rifat bosqichi inson ruhining Haqqa yaqinlashish yo‘lida eng muhim manzillaridan biridir. U shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat zanjirining uchinchi pog‘onasi bo‘lib, insonning Haqni qalb orqali bilish holatini bildiradi. Shermuhammad Munis ijodi ana shu bosqichning ham badiiy ifodasini o‘zida jamlagan. Uning g‘azallari, xususan, “Zihi, bo‘lmay nubuvvat bahridin sendek guhar paydo”, “Ey sharaf avji uza axtari

burji hudo”, “Ko‘nglum o‘tidin shu’la zulfingg‘a tutoshmishdur”, “Rofe’li a’lom davlatdur valo’yi avliyo” kabi asarlarida ma’rifatning ilohiy mohiyati, qalb nuri, idrok, tajalli va ruhiy poklanish jarayoni badiiy obraz va ramzlar orqali talqin etiladi.

Zihi, har xo‘blig‘larkim, sening zotingda paydodur,
Qalam vasfing bitarda lol-u til ayturdadur abkam (393-bet).

Shoir “hayotdagi har bir narsa Senga oid” deya Allohga madh aytmoqda. Qalam – taqdir bitigi, yozuvchisi ham bu yerda so‘z aytishga ojizdir. Alloh jamolini ta’riflashda har bir qalam ojizdir. Bu ma’rifat bosqichi bo‘lib, endi Alloh jamoli haqida so‘zlashga, uning mohiyatini anglashga aql zaiflik qiladi.

Tasavvuf ta’limotida “yaqin” tushunchasi bor. Bu tushuncha Allohni bilish, anglash hollarini ifoda etadi. Qur’oni karimning “Hijr” surasi 99-oyatida mazmunan shunday oyat bor: “Va senga aniq narsa kelgunicha, Robbingga ibodat qil”. “Aniq narsa”ni mufassirlar asosan “o‘lim” deya izohlagan bo‘lsalar, so‘fiylar esa “yaqin” ilohiy haqiqatga erishish deya idrok etishgan. Bundan tashqari, nafsning o‘lishi deya ham izohlaganlar. “Yaqin” tushunchasi asosan, ma’rifat bosqichiga bog‘liq jarayon bo‘lib, bu uch bosqichda bo‘ladigan jarayondir. Ilm ul-yaqin – bilish orqali Allohni idrok etish, ayn ul-yaqin – idrok va mushohada orqali Allohni ko‘rish, haq ul-yaqin – Alloh bilan bir bo‘lish, fano va baqo holati. Bu uchlik tasavvufiy yo‘lni o‘zida jamlagan bo‘lib, tasavvufning asosiy nazariyasi hisoblanadi. Munis bu yo‘lni obrazlar orqali ifodalagan. Har bir bosqich uning ijodida bir qator obrazlar va ishq, nur, sham’, zulf, parvona, soqiy, gul kabi timsollar orqali ochiladi.

“Ilm ul-yaqin va ayn ul-yaqin tushunchalarining farqi haqida: “Ilm ul-yaqin payg‘ambarlik sababli payg‘ambarga oiddir. Aynul yaqin esa farishtalarga oiddir. Chunki ular jannatni, jahannamni, qiyomatni, qabrni, Lavhul Mahfuzni, Qalamni, Arshni va Kursini aynan ko‘radilar va mushohada etadilar”[28]. Demak, ilm ul-yaqin bilish, ayn ul-yaqin esa ko‘rganini his etishdir.

Munis g‘azallarida ilmni nurga qiyos qilgan. Uning manbai esa qalb deb biladi. G‘azallarida “ko‘ngul o‘ti”, “shu’la”, “nur”, “tajalli” timsollari ilm ul-yaqinning ramzlaridir.

Zihi, bo‘lmay nubuvvat bahridin sendek guhar paydo,
Bo‘lub sendin nabilar afsarig‘a zeb-u far paydo (21-bet).

Payg‘ambarlik ummonidan sizdek bebaho gavhar paydo bo‘lmagan, boshqa payg‘ambarlar toji ham Siz sababli ziynat va qimmat topgan. Payg‘ambar alayhissalom nubuvvat ummonining eng bebaho gavhari sifatida tasvirlanadi. Tasavvufda Rasululloh barcha payg‘ambarlarning nuri va kamolotining manbai hisoblanadi. “Nabiylar afsari” iborasi esa boshqa payg‘ambarlarning ma’naviy martabasi ham U zot orqali ziynat topishini anglatadi. Rasululloh barcha nubuvvatlarning asl nuri sifatida talqin etiladi. Ilm ul-yaqin – ana shu nurdan bir zarrani idrok etish holatidir.

Agarchi bul bashar farzandidursan, lek xilqatda

[28] Абу Ҳамид Ғаззолий. Мукошафату-л-қулуб // Ислом тасаввуфи манбалари (тасаввуф назарияси ва тарихи). Илмий мажмуа. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 91.

Sening yuzing furug‘i birla bo‘ldi bul bashar paydo (32-bet).

Ushbu bayt ayn ul-yaqinning cho‘qqisi bo‘lib, solik Alloh jamolini ko‘radi. Ammo bu ko‘rish ko‘z orqali emas, basirat – qalb ko‘zi orqali amalga oshadi. Munisda bu bosqich “ko‘ngil ko‘zi bilan Haqni mushohada etish” deb talqin qilinadi.

Tasavvufda haq ul-yaqin bosqichi – insonning Haqni nafaqat bilishi yoki ko‘rishi, balki Haqning o‘zida yo‘q bo‘lishi, fano maqomidir. Shoir ijodida ishqning eng oliy pog‘onasi sifatida talqin etiladi. Shoir Haq nuri bilan birlashgan, ruhiy kamolotga erishgan insonni madh etadi.

Munis ijodida haq ul-yaqin inson ruhi sayrining yakuni, Haq bilan to‘liq birlashish holatidir. Bu bosqichda u “men”ini butkul yo‘qotib, “U” bilan yashay boshlaydi. Haq endi tashqarida emas, insonning o‘zida zohir bo‘ladi. Munis she’riy falsafasida haq ul-yaqin – nur bilan to‘lish, jamolni mushohada etish, fano va baqo birligida yashash holatidir. Shoirning g‘azallarida bu hol nafaqat falsafiy g‘oya balki ruhiy tajriba sifatida ifodalanadi. Shu tarzda, Munis o‘z ijodi orqali tasavvufiy bilishning eng oliy darajasini – Haqning insonga singishi, insonning Haqdagi abadiy hayotini badiiy shaklda ifoda etgan.

Emas yaxshiliq yaxshiliqg‘a karam,
Karim ersang, ahsan ilo man aso (53-bet).

Qur’oni karimning “Fussilat” surasi 34-oyatida “Yaxshilik bilan yomonlik barobar bo‘lmas. Sen yaxshilik bo‘lgan narsa ila daf qil, ko‘ribsanki, sen bilan orasida adovati bor kimsa, xuddi sodiq do‘stdek bo‘lur”. Ushbu oyatning misoli tariqasida kelgan yuqoridagi baytda ham yomonlikka ham yaxshilik bilan javob berish, har qanday holatni Alloh rahmati deya qabul qilish g‘oyasi ilgari surilgan. Bu bayt haq ul-yaqin bosqichining axloqiy ko‘rinishi sifatida gavdalangan. Orif Alloh irodasi bo‘lganligi sababli har bir holga rizo bo‘lishi va shukr qilishi kerakligi ifoda etilgan.

Shermuhammad Munis ijodida tasavvuf yo‘lining so‘nggi bosqichi haqiqat bosqichidir. Shoir ijodida bu bosqich ham o‘zining badiiy ifodasini topgan. Ushbu misralarda orif ruhining ichki sayrini, insonning nafs zanjiridan ozod bo‘lib, Alloh haqiqatiga yetish jarayoni o‘z ifodasini topadi. Bu jarayon ko‘p bosqichli, iztirobli va nurli bir ruhiy jarayondir. Shoir haqiqat maqomini “nuriy haqiqat”, “jamol tajallisi”, “ko‘ngul oyinasi”, “fanoning baqoga aylanishi” timsolida ko‘rsatadi.

To jamoling oftobini tamosho ayladim,
Zarradek sargashtalik rasmini paydo ayladim (202-bet).

Shoirning bu bayti orifning haqiqat bosqichidagi birinchi tajribasini aks ettiradi. Bu yerda Alloh jamoli – oftob, orif esa uning qarshisidagi zarra kabi tasvirlanadi. Zohiran kuch va qudrat nisbatsiz ko‘rinadi, ammo zarra o‘sha oftob nurisiz mavjud emas. Munis haqiqat bosqichini vahdat nuri bilan ifodalaydi. Barcha mavjudot boshida Haq nuri borligini anglash, barcha zarra ana shu nurning soyasi ekanini sezishi bu haqiqatning o‘zidir. Haqiqat maqomiga erishgan inson uchun jamol – tajalliydir.

Sari ko‘ying o‘lsa agar madfanim,
Behishti baqo bo‘lg‘usi maskanim (383-bet).

Ushbu baytda shoir tasavvufdagi fano va baqo g‘oyalarini badiiy ifodalaydi. “Sari ko‘ying o‘lsa agar madfanim” misrasida oshiq uchun yor ko‘yi eng muqaddas maskan sifatida tasvirlanib, u hatto o‘limidan keyin ham o‘sha dargohga yaqin bo‘lishni istaydi. Ikkinchi misradagi “Behishti baqo bo‘lg‘usi maskanim” jumlasi esa fano ortidan keladigan abadiy hayot – baqo maqomiga ishora qiladi. Tasavvufiy talqinda bu o‘lim jismoniy yo‘qolish emas, balki nafs va o‘zlikdan kechishdir. Haqiqat maqomiga yetgan orif o‘z “men”ini tark etib, ilohiy mavjudlikni qalban idrok etadi. Shu sababli uning uchun o‘lim qo‘rquv emas, balki abadiy visol va ruhiy boqiylikka eltuvchi yo‘ldir. Baytda Munis haqiqatning eng yuksak darajasi bo‘lgan baqo holatini tasvirlab, orifning foniylikdan boqiylik sari yuksalishini badiiy talqin etgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Irfoniy obraz va ramzlarning shoir she’riyatidagi badiiy vazifasi”** deb nomlanib, bobning birinchi fasli ***“May bilan bog‘liq obrazlar”*** deb ataladi.

XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik vakillaridan biri Shermuhammad Munis ijodida ichki ruhiy kechinmalar, so‘fiylar holati, tariqat yo‘lida uchraydigan murakkab bosqichlar bevosita tasavvufiy timsollar orqali talqin etiladi. “Mayda Yor jamolini ko‘rish, may idishini quyoshga o‘xshatish Navoiyning sevgan obrazlaridan. “Ashqarat min aksi shamsil ka’si anvorul-hudo, Yor aksin mayda ko‘r deb jomdin chiqdi sado” – chiqayotgan quyosh kosasining aksidan hidoyat nurlari porlab ko‘rindi, jomdan Yor jamolini mayda ko‘r, degan sado chiqdi. “Xazoyin ul-maoniy” devoni mana shu bayt bilan boshlanadi. Shoir nazarida lovullagan olov kurrasi – muazzam oftob ham o‘sha buyuk ilohiy qudratning in’ikosi, mavjudotni harakatga keltiruvchi may to‘lg‘azilgan jom, uning porlashi esa – Yor jamoli”[29].

Ushbu tasvir Shermuhammad Munis ijodidan olingan quyidagi baytda ham o‘z ifodasini topgan.

Necha Munis chekar anduhi firoqing zahrin,
Netti qilsang ani vasling mayi birla shodob (105-bet).

Necha oshiqlar Munis kabi firoqining zahridan g‘am-alam chekadi, vasling mayi birla uni bahralandirsang. Ushbu baytda ham “vasling mayi” deya mayda yor jamolini ko‘rishga ishora qilingan. Ilohiy ishq tomondan nazar tashlasak, bu baytda Allohning jamolini ko‘rish uchun duo qilayotgan oshiqlar holati ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Shoirning ushbu bayti orqali an’anaviy ifodalardan qanchalik mahorat bilan foydalana olishini va Navoiy an’analarini davom ettirganining guvohi bo‘lamiz.

“Zohid, senga hur-u menga Jonona kerak,
Jannat senga bo‘lsin, menga mayxona kerak,
Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,
Paymona necha bo‘lsa to‘lo, yona kerak.

[29] Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Моваройннаҳр, 2009. – Б. 155.

Bunda may ilohiy fayz ramzi, Jonona – Parvardigor, mayxona – orif huzuri, soqiy – o‘sha pir, paymona – ishq”[30]. Navoiy ijodidan olingan ushbu misralarni adabiyotshunos N.Komilov yuqoridagicha tahlil qilgan.

Ushbu tahlil asosida Shermuhammad Munis ijodiga oid baytlardagi tasavvufiy baytlarni ham shu asosda va shoirning o‘ziga xosliklari asosida tahlil qilishga harakat qildik.

“Munis ko‘proq Navoiy g‘azaliyotining hayotsevarlik motivlarini rivojlantirgan. Navoiy kabi zohidlikka, tarkidunyochilikka qarshi kamarbasta bo‘lgan. Munis lirikasidagi rindona kayfiyatlar Navoiy rindona g‘azallaridagi lirik qahramon ruhiyatiga hamohang. Munis Navoiyning rindona g‘azallarini juda sevgan va ularga bir necha muxammaslar bog‘lagan. Munis muxammas bog‘lagan rindona g‘azallar hayotsevarlik mayllarini ifodalaydi. Munis esa shu maylni kuchaytirish maqsadida unga qarama-qarshi zohid obrazini ham asarga olib kiradi:

Tun oqshom kuch bila zohid meni maxmuri rohatg‘a,
Berib ko‘p tavba, moyil bo‘l, der erdi zuhdi toatg‘a.
Men andin qutqarib o‘zni, kelibmen endi xizmatg‘a,
Yasa, ey piri bodakim, kelgum kaforatg‘a,
Eshitdimkim, meni aylabdurur deb tavba yazg‘urding (538-bet).

Bu hol badiiy ziddiyatni kuchaytiradi, g‘azalning hayotiyligini oshiradi”[31].

Shabnamedur jonfizo jannat guli bargi uza,
Qatrayi maykim, erur ul la’li maygun ustida (39-bet).

Jannat guli ustidagi shabnam tomchilari rohatbaxsh bo‘lganidek, yor labidagi har qatra may ham rohatbaxshdir, jannat guli ustidagi shabnam kabidir, deyilmoqda. Bilamizki, la’l mumtoz adabiyotda yorning labi ramzida keladi.

Jon fayzi zarra-zarra xokimg‘a yetkurur,
Bir qatra boda tushsa dudog‘idin osilib (138-bet).

“Bir qatra boda tushsa dudog‘idin osilib” majoziy ma’noda bu ma’shuqaning yor bilan suhbatlashishi, Ilohiy ma’noda esa pirning murshid bildirgan hikmatlaridir. Ushbu baytda “zarra-zarra” birikmasi mukarrar san’atini yuzaga keltirgan.

Tasavvufda may bilan bog‘liq obrazlardan yana biri bu Jamshid obrazidir. Jamshid jomi, jomi Jam birikmalari adabiyotda keng qo‘llaniladi. Jam – qadimgi Eronning afsonaviy podshohi Jamshid nomining qisqartirilgan shakli. Jamshid “jomi jahonnamo”[32] – butun olamni oyna kabi yorqin aks ettiruvchi jom yasattirgan bo‘lib, unda dunyodagi nafaqat ayni zamondagi, balki o‘tmishda yuz bergan va hatto kelajakda sodir bo‘ladigan voqea-hodisalar ham tazahhur etar ekan[33]. Mumtoz adabiyotda jomi Jam, jomi jahonbin, joni jahonnamo kabilar olam hodisalarini shuningdek, inson aql-zakovati anglab yetmagan sir-sinoatlarni, olamshumul haqiqatlarni ham oshkor etadigan o‘ziga xos poetik timsollar sanaladi. Mumtoz adabiyotda, jumladan, irfoniy she’riyatda ham g‘am dunyo tashvishlari,

[30] O‘sha manba, – B. 150.
[31] Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафкураси ва адабий мерос (XVII–XIX асрлар ўзбек шеърияти асосида): Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1999. – Б. 111.
[32] Muhammad G‘iyosuddin. G‘iyos ul-lug‘ot. Iborat az 3 jild. Jildi 1. – Dushanbe, 1987. – C.226.
[33] Hofiz Sheroziy. Ishq gavhari(Izohlar qismi). – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 224.

alam-iztiroblari, qayg‘u-hasratlari hamda sevikli yordan ayri tushgan jafokash oshiqning ruhiy iztiroblarini anglatuvchi umumlashma obrazdir[34]. Munis ijodidan ham bu chetda qolmagan. Quyida bunga bir qancha misollar keltiramiz.

Ichib tutsa manga may gar nigori boda oshomim,
Bo‘lur jamshidlig‘ oyinim-u getinamo jomim (387-bet).
Iltifoting nash’asi ko‘nglumni aylab shodkom,
Men gado jamshiddek sarmasti jomi Jam erdim (398-bet).

Tasavvufda rind obrazi ham keng qo‘llanuvchi obrazlardan biridir. Rind[35] so‘zi aslida forscha bo‘lib, noziktabiat, olifta, beparvo, beg‘am kabi ma’nolarni anglatadi. “Farhangi zaboni tojik”da rind atamasi ziyrak, hushyor, ozodfikr, qo‘rqmas, shariat hukmlariga beparvo, mayxo‘r ma’nolarida sharhlangan[36]. Rus olimasi M.L.Reysnerning ta’riflashicha: “Rind mayxonaning doimiy egasi, xo‘jayini. Undagi sokinlikni buzuvchi, janjalkash, ayyor va firibgar. Barcha yomon xulqlarning egasidir. Ammo tasavvuf adabiyotida bunga mutlaqo teskari bo‘lgan timsol sifatida keltiriladi[37]. Mumtoz she’riyatda rind hamisha mayga tashna, qanchalik ko‘p ichsa ham baribir chanqog‘i bosilmaydigan, soqiy may quyuvchi qadahni uzatgunicha sabri chidamaydigan obraz qiyofasida tasvirlanadi. Ushbu obraz Munis ijodida ham o‘ziga xos tarzda qo‘llanilgan.

Rindlik kayfiyati dayrdadurur, topilmas –
Ko‘chayi zuhdda ul har necha qilsa tak-u dav (453-bet).

Ushbu baytda “rind, dayr, zuhd” so‘zlari tanosub san’atini gavdalantirgan. Rindlik kayfiyati taqvodorlik ko‘chasida qancha yugurib-yelsa ham topilmaydi, u faqat dayrda, ya’ni pir dargohida bo‘ladi. Rindlar har doim o‘zlarini shayx va zohidlardan ustun qo‘yganlar. Tasavvufda rind shariat va tariqat bosqichlaridan o‘tib, haqiqat yo‘liga yetgan komil inson ramzi. Haqiqiy ishq namoyandalariga ko‘ra, rind ishqi ilohiyga va husni Mutlaq visoliga tashna Haq oshig‘idir[38].

Uchinchi bobning ikkinchi faslida ***“Tasavvufiy ramzlarning shoir ijodidagi roli”*** masalalari ochib beriladi. Adabiyot, ayniqsa, tasavvufiy adabiyot – irfoniy ramz va timsollar tili. Tasavvuf adabiyoti o‘zining o‘ta ramziyligi va serqirra ma’nolar majmuasini jamlaganligi bilan ajralib turadi. Bir qarashda oddiy va sodda bo‘lib ko‘ringan hamda kundalik hayot mavzulariga bag‘ishlangan nazmiy va nasriy satrlar, so‘z va so‘z birikmalari ortida chuqur falsafiy mushohada, ma’rifat va ma’naviyatga yetaklash, foniy va boqiy dunyo qarama-qarshiliklaridan ogoh etish mazmuni yashirinib yotadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy she’rlar yozish, tasavvufiy obrazlarni, ramzlarni qo‘llash orqali go‘zal va jilvador misralar bitish keng yoyilgan holatlardan biri hisoblanadi. Albatta, bu borada Alisher Navoiy hazratlarining ijodi mukammal manbalardandir. Hazratni o‘ziga ustoz bilgan Shermuhammad Munis ijodida ham tasavvufiy g‘oya, mavzu, obraz va ramzlarni qo‘llash, ular orqali pandnoma ruhidagi asarlar yozish keng qo‘llanilgan. Shoir ijodida tasavvufiy timsollardan lab, soch, yuz, qosh, ko‘z, xol, gul, xat,

[34] Uludağ S. Tasavvuf terımlerı sözlügü. – Istanbul: Marifet Yayinlari, 1995. – S. 198.
[35] Muhammad G‘iyosuddin. G‘iyos ul-lug‘ot. 3 jild. 1-jild. – Dushanbe: 1987. – B. 377.
[36] Farhangi zaboni tojiki. Iborat azd-u jild. Jildi 2. – Москва:, 1969. – S.138.
[37] Рейснер М.Л. Эволюция классической газели на фарси X – XIV века. – Москва: Наука. – С.64.
[38] Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 227.

mayxona, qadah va shu kabi bir qancha ramzlar o‘ziga xos tarzda mahorat bilan qo‘llanilgan bo‘lib, ularga anchagina misollar mavjud.

Lablarindin gar zulole, yetsa o‘lgon jon topar,
Kim ko‘rubtur oqg‘anin yoqutdin jon sharbati.(145-bet)

Agar lablaringdan tiniq salqin suv tushsa, o‘lgan odam undan jon topar, kim ko‘ribdir, yoqutdan jon sharbati oqqanini deya murojaat qilayotgan shoir, majoziy ma’noda yor labini alqovlayotgan bo‘lsa, tasavvufiy ma’noda pirning purma’no so‘zlariga ishora qilyabdi. Lab tasavvufiy adabiyotda pirning muridlarga aytgan purnamo so‘zlari, yoki so‘fiy uchun ilohiy ishqqa erishish vositasiga ishora qilishini bilamiz. Baytning mazmuniga ko‘ra ushbu pirning purma’no so‘zlari muridlarga jon bag‘ishlaydi. Murid tasavvuf adabiyotida talab etuvchi, istovchi, pirga qo‘l berib, tariqatga kirgan, kamolotga erishishni niyat qilgan, komil shayxga bog‘lanib, unga bay’at qilgan so‘fiy hisoblanadi.

Ko‘nglima bir gul g‘amidin sonchilibdur xorlar,
Ohkim, har xordin jonimdadur ozorlar (279-bet).

Baytda ishqning murakkab va ziddiyatli mohiyati tasvirlangan. Tasavvufiy adabiyotda “gul” timsoli odatda yor husni, muhabbat go‘zalligi, ilohiy jamol hamda Haqning go‘zal sifatlarini anglatadi. Shu bilan birga, gul ma’shuqaning o‘zini ham ifodalaydi. “Xor” esa muhabbat yo‘lida uchraydigan g‘am, hijron, iztirob va sinovlar ramzi hisoblanadi. Baytda oshiq qalbiga gulning g‘ami bilan birga tikonlar ham sanchilgani tasvirlanadi. Ya’ni muhabbat qalbga faqat quvonch va huzur olib kelmaydi, balki iztirob va mashaqqatlarni ham olib kiradi. Shoirning “har xordin jonimdadur ozorlar” deyishi ishq yo‘lida chekayotgan ruhiy azoblarining kuchliligini ifodalaydi. Bundan tashqari, baytda gul va tikon o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlikka ham ishora mavjud. Ma’lumki, gul tikonsiz bo‘lmaganidek, ma’shuqa ham mutlaqo nuqsonsiz tasvirlanmaydi. Uning beparvoligi, jafokorligi, visoldan mahrum etishi yoki oshiqni sinovdan o‘tkazishi timsoliy ma’noda “tikon” vazifasini bajaradi. Shu sababli oshiq ma’shuqaning husnidan bahra olishi bilan birga, uning jafolaridan ham ozor chekadi. Bu tasvir quyidagi baytda o‘z isbotini topadi.

Mumkin emas yuzig‘a subhi bahor o‘xshamoq,
Fayzi jamoli aning dahrni bo‘ston qilur (212-bet).
Zulf birla orazingdur kufr-u imondin g‘araz.
Xattu la’ling dog‘i Xizr-u obi hayvondin g‘araz. (137-bet)

Tasavvufda yuz oliy haqiqat, ilohiy husnning zuhur bo‘lish ramzi. Solikning oliy haqiqatga, visolga, maqsadga, Alloh jamoliga yetishish ramzi hisoblanadi. Solik – irfon yo‘lida borayotgan yo‘lovchi. Tasavvufda tariqatni ixtiyor etib, ruhiy poklanish yo‘liga kirgan, hali biror maqom yoki martabaga erishmagan kishi.

Mardumlarim yuzig‘a yopishtim-u yo magar,
Mashshota zeb berdi munga ani hol etib.(20-bet)

Bu bayt Munisning nafis misralaridan bo‘lib, unda go‘zallik, husn pardasi va majoziy tasavvufiy ramz mujassam bo‘lgan. Mardum ko‘z qorachig‘i bilan xalq ma’nosida ham keladi. Ushbu baytda esa uning birinchi ma’nosi ustun qo‘yilgan. Mashshota – pardozchi, bezakchi, ya’ni go‘zallik bezakchisi; go‘zallik yaratuvchi ilohiy qudrat. Xol esa yuzdagi qora nuqta, go‘zallik belgisi; ishq ahli uchun sirli

nuqta, ilohiy haqiqat markazi hisoblanadi. Baytda oddiy go‘zallik tasviri orqali ilohiy ishqning markaziy nuqtasi, Haqni ko‘ruvchi qalb nigohi va go‘zallik yaratguvchi qudrat majozan birlashtirilgan. Bu Munisning tasavvufiy qarashlarida oddiy husn orqali komillikni ko‘rsatishning yorqin namunasi hisoblanadi.

Tasavvufiy adabiyotda xat ramzi ma’shuqa labi ustidagi tuklarga ishora qiladi. Uning badiiy ifodasi esa Xizr obraziga, ya’ni tiriltirish, tiriklik ma’nolariga ishora qiladi. Yuqoridagi baytda ushbu ramzlarning yaqqol namunasi keltirilgan.

Shavqim afzunroq bo‘lur ko‘rgan sori mushkin xating,
Bog‘bon xurramlig‘idur sabza rayhondin g‘araz (320-bet).

Bog‘bonning maqsadi, uning xurramligi yashil rayhon bo‘lganidek, oshiqning maqsadi, shavqi ham yorning qora, mushkin xatidir. Bu yerda ham mushkin xat yor labi ustidagi tuklarga va Xizrga, tiriltirishga ishora qilmoqda. Yashil rayhon bahor, yangilanish faslida bo‘lganligi sababli ham bog‘bon bahorda qayta tiriladi, ya’ni ish boshlaydi. Oshiq ham yor jamoliga yetishgach qayta tiriladi. Alloh jamoliga erishgan oshiqlar yangi hayot boshlagandek bo‘lishlariga ishora qilinmoqda.

Masjidingda fayz yo‘q, zohid, huzuringda futuh,
Yetkurur soqiy futuh el ko‘nglig‘a, mayxona fayz (318-bet).

Mayxona mumtoz adabiyotda ishq mayidan mast bo‘lgan oshiqlar maskani bo‘lsa, tasavvufda pir dargohi hisoblanadi, soqiy esa pir, ustozdir. Baytda keltirilishicha, barcha fayz Haq yo‘liga chorlovchi pir dargohida, Alloh jamoliga yetishishdagi yo‘l ham pirdadir. Masjid esa dunyo ramzi bo‘lib kelgan, dunyoda fayz ham, ma’rifat ham yo‘qdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Shermuhammad Munis diniy-tasavvufiy she’riyatining g‘oyaviy-genetik asoslari Qur’oni karim, hadisi shariflar va tasavvufiy manbalarga borib taqaladi. Shoir ijodida tavhid, tavakkul, sabr, shukr, qanoat, tavba, zuhd, ishq va ma’rifat kabi islomiy tushunchalar badiiy talqinning yetakchi uzvlari sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Munisning diniy-tasavvufiy dunyoqarashi shakllanishida tasavvuf allomalari merosi muhim o‘rin tutgan. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy va boshqa mutasavviflar asarlaridagi irfoniy qarashlar shoir she’riyatida yangi poetik talqin kasb etgan.

3. Shoir diniy-tasavvufiy lirikasining adabiy-estetik manbalarini Sharq mumtoz she’riyati an’analari tashkil etadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodidagi ishq, fano, baqo, komil inson va ma’rifat konsepsiyalari Munis she’riyatida ijodiy davom ettirilgan.

4. Munis tasavvufning shariat bosqichini inson kamolotining dastlabki va zaruriy poydevori sifatida talqin qiladi. Shoir nazarida ibodat, taqvo, halollik va shariat ahkomlariga rioya qilish ma’naviy yuksalishning muhim sharti hisoblanadi.

5. Tariqat masalalari Munis ijodida murshidga ergashish, nafsni poklash va ruhiy kamolot sari intilish jarayoni sifatida yoritiladi. Bu bosqichning badiiy

talqinida murshid, pir, darvesh, faqir va rind obrazlari muhim poetik vazifani bajaradi.

6. Munis yashab ijod qilgan Xorazm adabiy-madaniy muhitida kubroviya tariqati an’analari keng tarqalganligi bois, shoir ijodida mazkur tariqatning ta’siri yaqqol seziladi. Ayni paytda uning tasavvufiy qarashlarida naqshbandiya ta’limotiga xos g‘oyalar ham muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqot davomida Munis she’riyatida uchraydigan tasavvufiy qarashlar, istilohlar tahlili asosida shoirning kubroviya hamda naqshbandiya tariqatlariga asoslanganligi dalillandi. Natijada uning she’riy merosida ilohiy ishq, zikr, ma’naviy poklanish, komil inson g‘oyasi va Haqqa yaqinlashish masalalari mazkur tariqatlar ta’limoti bilan aloqador holda badiiy ifoda etilgani aniqlandi.

7. Ma’rifat va haqiqat maqomlari shoir lirikasida ilohiy bilimni qalban anglash hamda Haq visoliga erishish g‘oyalari bilan bog‘liq holda tasvirlangan. Ushbu maqomlar orqali insonning botiniy olami, ruhiy tajribasi va ilohiy ishqqa munosabati ochib beriladi.

8. Munis she’riyatida komil inson konsepsiyasi tasavvufiy tafakkurning markaziy masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir komillik mezoni sifatida ilm, ma’rifat, ixlos, tavoze’, qanoat va ilohiy muhabbatni ulug‘laydi.

9. May, boda, soqiy, mayxona, qadah va xarobot kabi obrazlar Munis lirikasida ramziy-irfoniy mazmun kasb etadi. Ular ilohiy ishq, ma’rifat nuri, ruhiy mastlik va Haq jamoliga oshuftalik holatlarini ifodalovchi poetik vosita vazifasini bajaradi.

10. Shoir ijodidagi tasavvufiy ramzlar tizimi diniy-falsafiy mazmunni badiiy jihatdan ta’sirchan ifodalash imkonini yaratgan. Gul, bulbul, sham’, parvona, zulf, yuz, ko‘zgu, dengiz, gavhar kabi timsollar orqali ilohiy jamol, ishq, vahdat, fano va baqo g‘oyalari badiiylashtirilgan.

11. Shermuhammad Munisning diniy-tasavvufiy she’riyati o‘zbek mumtoz adabiyotida irfoniy tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichlaridan birini tashkil etadi. Shoir islomiy ma’rifat, tasavvuf falsafasi va mumtoz poetika an’analarini uyg‘unlashtirib, diniy-irfoniy mavzularni yuksak badiiy saviyada talqin etgan hamda o‘zbek tasavvufiy adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Mazkur xulosalar Munis diniy-tasavvufiy lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlash, uning mumtoz adabiyotdagi o‘rni va ahamiyatini belgilash hamda o‘zbek tasavvufiy she’riyati taraqqiyotidagi rolini yoritishga xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

ОТАМУРАТОВА САДОКАТ ТУЛКИНБЕК КИЗИ

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНО-СУФИЙСКИХ СТИХОТВОРЕНИЙ МУНИСА

10.00.02 – Узбекская классическая литература

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ургенч – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/Fil4569.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете им. Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (русском, узбекском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (fil-ik.urdu.uz), а также на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	**Гайипов Дильшод Кадамбаевич** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Амонова Зилола Кодировна** доктор филологических наук, профессор
	Омонбаева Азиза Дониёр кизи доктор философии (PhD) по филологических наукам
Ведущая организация:	**Қоқандский университет**

Защита диссертации состоится «27» ноябрь 2026 г. В 9:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.10.06.Fil.06.06 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете им. Абу Райхана Беруни (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14). Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета им. Абу Райхана Беруни (зарегистрирована за №0-1093). (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00), e-mail: arm@urdu.uz.

Автореферат диссертации разослан «6» ноябрь 2026 г.

(Протокол реестра рассылки № 15 от «6» ноябрь 2026 г.)

А.Д. Уразбоев
Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук (DSc), профессор

С.С. Атажонов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по филол. наукам, доцент

А.И. Примов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении особое внимание уделяется изучению творческого наследия представителей классической литературы Востока, его идейно-художественного своеобразия и духовных истоков. Особую научную значимость приобретают исследования, посвящённые художественной интерпретации суфийского учения в классической литературе, а также поэтическому воплощению идей божественной любви, совершенного человека и духовного самосовершенствования. В поэзии Шермухаммада Мунис, одного из выдающихся представителей узбекской классической литературы, своеобразное художественное воплощение получили религиозно-суфийские идеи, органично связанные со Священным Кораном, хадисами Пророка, духовным наследием выдающихся суфийских мыслителей и классическими традициями восточной литературы. В этой связи изучение религиозно-суфийской лирики поэта в контексте исламских и мистических источников духовного познания, исследование художественного воплощения этапов суфийского пути, поэтических функций образов и символов духовного познания, а также раскрытие идейного содержания суфийской символики имеет важное научно-теоретическое значение.

В мировом литературоведении, в том числе в трудах учёных Российской Федерации, Турции, Азербайджана и Таджикистана, выполнен ряд исследований, посвящённых художественной интерпретации философии суфизма в узбекской классической литературе, месту суфийских понятий и символов в литературном процессе, а также поэтическому воплощению суфийских идей. Подобные исследования всё более актуализируют необходимость изучения наследия представителей восточной классической литературы на основе современных научных подходов. В этой связи особую научную значимость приобретает исследование суфийских воззрений в поэзии Шермухаммада Мунис, их исламских и суфийских источников, органической связи с традициями восточной классической литературы, а также их роли в развитии узбекской суфийской поэзии и её идейно-художественного своеобразия. Религиозно-суфийское наследие поэта, его художественное мышление и творческий опыт по праву рассматриваются как один из важных источников вдохновения для последующего развития классической поэзии. В связи с этим изучение духовного наследия выдающихся представителей узбекской классической литературы, внёсших достойный вклад в развитие суфийской мысли и национальной литературной традиции, является одной из актуальных задач современного литературоведения.

В годы независимости Республики Узбекистан значительно расширился круг научных исследований, направленных на всестороннее изучение религиозно-суфийских и духовно-просветительских основ узбекской классической литературы. Переосмысление отношения к национальным и

религиозным ценностям создало широкие возможности для исследования исламского вероучения, философии суфизма и их художественного воплощения в литературе. Начиная с этого периода произведения классического литературного наследия, отражающие исламско-суфийские идеи, суфийские воззрения и проблемы духовного совершенствования личности, стали изучаться на основе новых научных подходов. В результате появился целый ряд исследований, посвящённых религиозно-суфийскому пласту узбекской литературы, что позволило глубже раскрыть духовно-эстетическую сущность классического литературного наследия. Действительно, «изучение и популяризация узбекской классической литературы на международном уровне, анализ её в неразрывной связи с важнейшими процессами, происходящими в современном мировом литературном пространстве, и выработка необходимых научно-практических выводов имеют большое значение»[39]. В этой связи основное содержание настоящего исследования составляет анализ суфийской интерпретации поэтического наследия Шермухаммада Муниса на основе современных научных подходов, раскрытие идейно-художественного своеобразия его религиозно-суфийской лирики и определение её значения в развитии узбекской классической литературы.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по коренному повышению роли и статуса узбекского языка как государственного языка», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», № УП-111 от 16 августа 2024 года «О мерах по обеспечению стабильности правового регулирования общественных отношений, повышению его качества и эффективности»; Постановлениями Президента Республики Узбекистан № ПП-2995 от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и популяризации древних письменных источников», № ПП-9 от 15 января 2026 года «О мерах по развитию культуры чтения и повышению интереса населения к чтению книг»; Распоряжением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 124-Ф от 16 февраля 2018 года «О проведении Международной конференции на тему “Актуальные вопросы изучения и популяризации узбекской классической и современной литературы на международном уровне”», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящая диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, развитие инновационной экономики».

[39] Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3271 от 13 сентября 2017 года «О Комплексной программе мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и пропаганде культуры чтения и читательской культуры» // Халқ сўзи, 14 сентября 2017 года.

Степень изученности проблемы. Творчество Шермухаммада Муниса исследовалось в мировом и узбекском литературоведении в различных аспектах. В частности, художественное наследие поэта стало объектом изучения А.Вамбери, А.Самойловича и М.Кёпрюлизаде[40], тогда как его крупнейшее историческое произведение – «Фирдавс уль-икбал» – специально исследовано в трудах Ю.Брегеля[41]. Кроме того, значительный вклад в изучение исторических сочинений поэта внесли А.Кун, В.Бартольд и П.Иванов[42]. Ю.Бертельс, В.Жирмунский и Н.Конрад[43], рассматривая художественное творчество Муниса в сравнительно-литературном аспекте и в контексте мировой литературы, также частично затронули проблему влияния суфизма на его творчество.

В Узбекистане в период, предшествовавший обретению независимости, литературовед Ю.Юсупов исследовал поэтическое наследие Муниса и подготовил к изданию сборники «Избранные произведения» и «Избранное» поэта[44]. Кроме того, К.Муниров, Айями, Т.Ахмедов, Н.Джумаходжа и С.Хасанов[45] проводили исследования творчества поэта в области истории, литературоведения и педагогики. В частности, Т.Ахмедов опубликовал монографический очерк «Мунис»[46], посвящённый жизни и творческой деятельности поэта. Литературовед Н.Джумаходжа подготовил к изданию трактат Муниса «Саводи таълим», а свою книгу «Газели Муниса (Вопросы художественного мастерства)» посвятил исследованию поэтического мастерства Муниса как выдающегося мастера газели[47].

